

HAYVONLARNING YASHASH MUHITI VA XILMA-XILLIGINI O'RGANISHDA ENG ULAY INTERFAOL METOD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17890628>

Aliboyeva Nigora Abdullayevna

*Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan
maktab internati biologiya o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hayvonot olami juda ham xilma-xilligi haqida, eng sodda hayvonlar jinssiz va jinsiy yo'llar bilan ko'payishi haqida, Yer yuzida hayvonlarning 2 mln ga yaqin turi tarqalganligi haqida, Hayvonlar bilan osimliklar murrakkab tuzilishga ega ekanligi haqida, Eng sodda hayvonlarning ko'pchiligi mikroskop ostida ko'rinadigan juda mayda organizmlar ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

hayvonot olami, o'simliklar, hayvonlar, cho'l, tog', dasht, organizm, hayot kechirishi, ko'payishi, yashash muhiti, ekologik muhit, quruqlik, havo, tuproq, muhit.

Yer yuzida hayvonot olami ham o'simliklar singari tarqalgan. Ularning shimoliy muz qutblaridan tortib janubiy kengliklargacha, shuningdek, cho'l, dasht, tog' zonalarida ham uchratish mumkin. Yer yuzida hayvonlarning 2 mln ga yaqin turi tarqalgan. Quruqlik, havo, tuproq, suv havzalari hayvonlar uchun asosiy yashash muhiti hisoblanadi. Parazit hayvonlar uchun esa odam, hayvon va o'simlik organizmi yashash muhiti bo'ladi. Hayvonlarning tuzilishi va hayot kechirishi xususiyatlari muayyan muhitga moslashgan. Masalan, suv hayvonlarining gavdasi suyri shaklda, oyoqlari eshkakka aylangan bo'ladi. Quruqlikda yashovchi hayvonlarning tanasi yapaloq, oyoqlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Yashash muhiti tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi namlik, harorat, yorug'lik va boshqalar ekologik omillar deyiladi. Hayvonlarning gavda o'lchami har xil bo'ladi. Ular qatorida og'irligi 150 tonnaga yetadigan gigant kitlardan tortib faqat mikroskopda ko'rinadigan, uzunligi millimetrning o'ndan bir, hatto yuzdan bir ulushiga teng keladigan turlari ham bor. Hayvonlar tabiatda va inson faoliyatida katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik hayvonlar yashil o'simliklar bilan oziqlanadi. Ular o'txo'r hayvonlar deyiladi. Boshqa hayvonlarni yeydigan

hayvonlar yirtqich; odam, boshqa hayvon va o'simlik to'qimalarida yashaydigan hayvonlar esa parazit hisoblanadi.

Hayvonot olami juda ham xilma-xildir. Hozirgi paytda yer yuzida 1500 mingdan ortiq hayvon turlari ma'lum. Hayvonlarning xilma-xillig, tuzilishi, xulq-atvori, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiatda va inson hayotidagi rolini o'rganadigan fan zoologiya deb ataladi.

Hayvonlar bilan osimliklar murrakkab tuzilishga ega bolib ularning umumiy o'xshashlik tomonlari xam bor. Masalan: ularning xar ikkalasi xam hujayralardan tuzilgan ikkalasi xam oziqlanadi o'sadi rivojlanadi ko'pgina hayotiy jarayonlari ham juda o'xshab ketadi. Bularning hammasi hayvonlar bilan o'simliklar bir-biriga qarindosh ekanligini, ular bir negizdan tarqalganligini ko'rsatadi. Lekin shu bilan birga ular o'rtasida katta farqlar ham bor. Masalan: hayvonlar - geterotrof, o'simliklar esa avtotrof organizmlardir. Hayvonlar yuradi, xarakat qiladi, noqulay sharoitdan qulay sharoitga o'tadi. O'simliklar esa bir xil sharoitda ekiladimi o'sha yer sharoitga moslashsa o'sadi, moslasha olmasa nobud bo'ladi. Shuning uchun xam hayvonlar soni o'simliklarga nisbatan 3 barobar ortiqdir.

Sodda hayvonlar tipi. Mazkur tipning vakillari eng sodda tuzilishga ega bo'lgan bir hujayrali hayvonlardan iborat. Ularni sodda hayvonlar deyilishiga sabab ham tanasining bitta hujayradan tashkil topganligidandir.

Eng sodda hayvonlarning ko'pchiligi mikroskop ostida ko'rinadigan juda mayda organizmlardir. Ularning kattaligi 50-100 mm dan 1-2 mm gacha bo'ladi. Sodda hayvonlar yer yuzida keng tarqalgan. Ular hamma yerda: chuchuk va sho'r suvda, ham tuproqlarda, hovuz, ariq, ko'lmak suvlarda, dengiz va okeanlarda, ba'zi vakillarini hatto hayvon va odam organiznida ham uchratish mumkin.

Bir hujayrali yoki sodda hayvonlarning tanasi tashkil etadigan hujayralarni ko'p hujayralardan farqi shundaki, U bitta hujayradan iborat bo'lsa hamki murrakkab tuzilishga ega bo'lib, murakabligi hujayra ayrim qisimlarining deferinsiallanganligi ularning har xil funksiyalari bajarishga layoqatlanligidandir. Hujayraning ba'zi qismlari xarakatlantirish vazifasini bajarsa, ba'zilar ovqat qabul qilish yoki ovqat hazm qilishga, boshqalari esa ortiqcha suvni va dissimilyasiya mahsulotlarini hujayradan chiqarib yuborishga moslashgan. Hujayraning ixtisoslashgan bu qismlari organella yoki organoidlar deb ataladi. Buni uning tipik vakili bo'lgan infuzoriya hujayrasida ko'rish mumkin. Hujayra tarkibida bir yoki bir nechta yadro, protoplazma, vakuollar bo'ladi.

Jinssiz ko'payganda infuzoriya hujayrasidagi yadro ikkiga bo'linadi. Undan ikkita yangi organizm hosil bo'ladi.

Eng sodda hayvonlar jinssiz va jinsiy yo'llar bilan ko'payadi. Lekin ularda jinsiy ko'payishga nisbatan jinssiz ko'ayish ko'p uchraydi. Buning yana bir isboti shuki ko'p xujayrali xayvonning xujayrali diferensialangan bo'lib muayyan vazifani bajarishga moslashgan. Ular ma'lum bir tomonga har xil darajada ixtisoslashgan. Bitta xujayradan tashkil topgan sodda xayvonlarning hujayrasi esa ana shularning xammasini bir xujayra ichida joylashtirib, barcha xayotiy vazifalarni bajaradi va mustaqil yashashga qodir bo'ladi. Sodda xayvonlar olami nixoyatda katta va xilma-xildir. Hozirgi vaqtda ularning turi 15000 tadan ortadi. Bulardan tashqari tabiatda ularning xili aniqlanmagan, ayni paytda parazitlik qilib yashaydigan juda ko'p turlari ham bor. Sodda hayvonlarga amyoba, infuzoriya-tufelka, evglena, volvoks va boshqalar kiradi.

Amyoba iflos suvli havzalar tagida yashovchi, kattaligi 0,2-0,5 mm keladigan mayda organizmdir. «Amyoba» o'zgaruvchi degan manoni bildirib, u hamisha o'z shaklini o'zgartirib turadi.

Amyobaning hujayrasida yadro, protoplazma va ovqat hazm qilish vakuolasi bor. Tana tuzilishi sodda, yolg'on oyoqlar chiqarib bir joydan ikkinchi joyga harakat qiladi. Bu vaqtda ular oziqni o'rab olib, ovqat hazm qilish vakuoli hosil bo'ladi ba uning vositasida oziqlanadi. Amyoba butun tanasining yuzasi bilan nafas olib, suvda erigan kislorod protoplazmaga sizib o'tadi.

Hayvonlar evolyutsiyasi okeanda 600 million yil oldin, bugungi kunda hech qanday tirik organizmga o'xshamaydigan mayda mavjudotlar bilan boshlangan. Hozirgacha saqlanib qolgan turlar soni 3 milliondan 30 milliongacha ekanligi taxmin qilinmoqda.

Ammo hayvon nima? Biz itlar, qushlar, baliqlar, o'rgimchaklar va qurtlarni hayvon sifatida osongina aniqlashimiz mumkin bo'lsa-da, marjon va gubka kabi boshqa organizmlarni tasniflash unchalik oson emas. Hayvonlar murakkabligi jihatidan farq qiladi - dengiz gubkalaridan tortib shimpanzegacha - va olimlar ularni yagona tizim doirasida tasniflash qiyin vazifaga duch kelishadi. Ular barcha hayvonlar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni, shuningdek hayvonlarning tegishli guruhlarini ajratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni aniqlashlari kerak. Hayvonlarni tasniflash tizimi hayvonlarni anatomiyasi, morfologiyasi, evolyutsiya tarixi, embriologik rivojlanish xususiyatlari va genetik tarkibiga qarab tavsiflaydi. Ushbu tasnif sxemasi turlar haqida yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan doimiy ravishda rivojlanmoqda. Tirik turlarning xilma-xilligini tushunish va tasniflash bizga yerdagi hayot xilma-xilligini qanday saqlashni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Amirqulov N. Umumiy ekologiya. Toshkent, 2002 y.
- 2.Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, 1991 y.
- 3.Mavlonov O. Zoologiya. 7 sinf darslik. Toshkent, 2005 y.
- 4.To`raqulov Yo.H. va boshqalar. Umumiy biologiya. Toshkent, 1996 y.
- 5.Hamdamov I.H. Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi. Ma`ruza matni. Samarqand, 2000 y.
- 6.Hamdamov I.H. va boshqalar. Табiiй фанлар zamonaviy konsepsiyasi. Тошкент, 2007 y.
- 7.www.ziyonet.uz